

MASHG'ULOTNING MAQSADI

O'quvchilarga kuz faslida tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ilmiy asosda tushuntirish. Ular ob-havo o'zgarishi, o'simlik va hayvonot olamida kuzatiladigan jarayonlarni kuzatish orqali tabiatning mavsumiy o'zgarishlarini bilib oladi.



Mashg'ulot davomiyligi

35-40 daqiqa



Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs 1-sinf [Tabiiy fan \(science\)](#) darsligining 28-sahifasidagi "[Guruhlarga ajrating](#)" deb nomlangan topshiriq asosida tayyorlangan.

MUHIM VA ASOSIY NAZARIY QISM

Kuz faslida Yerning Quyoshga nisbatan joylashuvi o'zgarishi natijasida kunlar qisqaradi, havo harorati pasayadi va yog'ingarchilik ko'payadi. Daraxtlarning barglari yashil rangini yo'qotib, sarg'ayadi va to'kiladi. Ko'pgina o'simliklarning mevasi pishib yetiladi, hayvonlar esa qish uchun oziq to'playdi. Ba'zi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketishadi, chunki kuzning sovuq harorati ularning yashash sharoitiga ta'sir qiladi.



STEM FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI



TABIIY FANLAR

fasllar almashinuvi, fotosintez jarayoni va hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganish



MATEMATIKA

havo haroratining o'zgarishini kuzatish va haftalik ob-havo haroratini taqqoslash



TEXNOLOGIYA

kuzgi hosilni yig'ishda foydalaniladigan zamonaviy texnikalar (kombayn, traktor) ni o'rganish va ularni maketini yashash



QIZIQARLI FAKT

Ba'zi daraxtlarning kuzda barglari to'kilmaydi. Masalan, qarag'ay, archa va boshqa ignabargli daraxtlar kuz va qishda ham yashil bo'ladi. Buning sababi ularning barglari kichik va qattiq bo'lib, suvni yaxshi saqlash xususiyatiga ega.

